

**JAMOATCHILIK NAZORATINI AMALGA OSHIRISHDA  
KONSTITUTSIYA VA QONUN USTUVORLIGINI TA'MINLASH:  
NAZARIY HAMDA AMALIY MUAMMOLAR VA  
ULARNING HAL ETISH YO'LLARI**

*Mansur Meyliyev Nemat o'g'li  
Toshkent dvlrat yuridik universiteti  
Magistratura bosqichi talabasi*

**Annotatsiya:** O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining muqaddimasida O'zbekiston xalqi huquqiy davlat barpo etishni o'z oldiga ulug'vor vazifa qilib qo'rganligi qayd qilingan. Huquqiy davlatning muhim va ajralmas belgisi hamda adolat - bu Konstitutsiya va qonun ustuvorligi hisoblanadi. Qonun ustuvorligi sohasidagi kamchiliklar va ularning yechimlari haqida batafsil maqolada to'xtalib o'tamiz.

**Tayanch tushunchalar:** qonun ustuvorligi, xalq irodasi, qonunlarning so'zsiz tan olinishi, "Harakatlar strategiyasi", odil sudlov.

**Summary:** In the preamble of the Constitution of the Republic of Uzbekistan, it is noted that the people of Uzbekistan have set themselves a noble task of establishing a legal state. An important and indispensable sign of the rule of law and justice is the Constitution, which is the priority of the state. We will dwell on the shortcomings of the rule of law and their solutions in a detailed article.

**Key words:** rule of law, will of the people, unconditional recognition of laws, "Strategy of actions", justice.

**Аннотация:** В преамбуле Конституции Республики Узбекистан отмечается, что народ Узбекистана поставил перед собой благородную задачу построения правового государства. Важным и неотъемлемым признаком законности и справедливости является Конституция, являющаяся приоритетом государства.

**Основные понятия:** верховенство закона, воля народа, безусловное признание законов, «Стратегия действий», справедливость.

Qonun ustuvorligi – bu, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari chiqarayotgan hujjatlar, mansabdor shaxslarning xatti-harakatlarining Konstitutsiya hamda qonunlarga muvofiq bo'lishini anglatadi.

Konstitutsiya va qonun ustuvorligi xalq hokimiyati va inson huquqlari tushunchalari bilan bevosita bog'liqdir. Chunki xalq hokimiyati ya'ni, demokratiya deganda fuqarolarning qarorlar qabul qilish jarayonida bevosita yoki bilvosita ishtirok

etish huquqi tushuniladi. Shu ma'noda, xalq irodasining yaqqol ifodasi bo'lgan, fuqarolarning parlamentga saylab qo'ygan vakillari orqali yoki o'zlari tomonidan bevosita referendumlar orqali qabul qilingan qonunlar xalq hokimiyatchiligining natijasi hisoblanadi. Inson huquq va erkinliklari qonunlar vositasida hayotga joriy etiladi, aslida qonunlarning pirovard maqsadi ham inson, uning huquq va erkinliklarini himoya qilishdan iborat bo'lishi kerak.

Xalqaro hujjatlarda qonun ustuvorligining asosiy elementlari sifatida qonun ijodkorligini shaffof va demokratik jarayonni qamrab olgan holda qonuniylikka asoslanishi, huquqiy aniqlik, mansabdor shaxslarga o'zboshimchalikning taqiqlanganligi, odil sudlovning ochiqligi, shuningdek, ma'muriy hujjatlar ustidan mustaqil sud nazoratining o'rnatilganligi, inson huquqlarini hurmat qilish va kamsitmaslik hamda qonun oldida barchaning tengligi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining III bobi «Konstitutsiya va qonunning ustunligi» deb nomlanib, mazkur bob Konstitutsiyamizning "Asosiy prinsiplar" bo'limida joylashgan. Nazariyadan ma'lumki, prinsiplar deyilganda rahbariy qoidalar nazarda tutiladi. Agar Konstitutsiyaning boshqa bo'limlari o'rtasida qandaydir kelishmovchilik kelib chiqadigan bo'lsa, masala nazariyaga ko'ra asosiy prinsiplarga tayanilib hal qilinishi kerak. Shu ma'noda qonun ustuvorligining Asosiy prinsiplar bo'limida joylashtirilganligi mamlakatimizda mazkur prinsipga alohida ahamiyat berilganidan dalolatdir.

Konstitutsiyaning yuqorida keltirib o'tilgan bobidagi hamda boshqa normalarida mustahkamlangan qoidalarini tahlil qilish quyidagi fikrlarni keltirib chiqaradi: birinchidan, O'zbekiston Respublikasi hududida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi. Ikkinchidan, davlat va uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'rishlari shart. Uchinchidan, birorta ham qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiya ba uning normalariga zid kelishi mumkin emas.

"Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonun<sup>1</sup>da O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi oliy yuridik kuchga egaligi, qonunosti hujjatlar qonun asosida va uni ijro etish uchun qabul qilinishi, qonunlar eng muhim va barqaror ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishi, normativ-huquqiy hujjat o'ziga nisbatan yuqori yuridik kuchga ega bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq bo'lishi shartligi hamda normativ-huquqiy hujjatlar o'rtasida tafovut bo'lgan taqdirda, yuqori yuridik kuchga ega bo'lgan normativ-huquqiy hujjat qo'llanilishi kabilar belgilab qo'yilgan.

<sup>1</sup> Lex.uz-O'zbekiston Respublikasi yagona interaktiv hujjatlar portali

Bundan tashqari, mamlakatimizda qonuniylik va qonun ustuvorligini ta'minlashning tashkiliy-huquqiy asoslari ham yaratilgan. Avvalambor bu, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etilishining kafili hisoblanishi, qonunlarning bajarilishi ustidan parlament, jamoatchilik va idoraviy hamda adliya organlarining nazorati o'rnatilganligi, Konstitutsiyaviy sud qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning hujjatlari Konstitutsiyaga qanchalik mosligiga doir ishlarni ko'rishi, sudning faoliyati qonun ustuvorligini ta'minlashga qaratilganligi, har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanganligi, qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan prokurorlik nazorati mustahkamlanganligi, tashkilotlarda yuridik xizmatlar faoliyati yo'lga qo'yilganligi kabilarda bevosita namoyon bo'ladi.

Mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta'minlashning zarur normativ-huquqiy va tashkiliy institutsional asoslari shakllantirilgan bo'lsada, haliham mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta'minlash bo'yicha bir qancha muammolar borligi ko'rinib turibdi. Bejizga, 2017-yil O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekistonni rivojlantirish bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"<sup>2</sup>da ham qonun ustuvorligini ta'minlash haqida so'z yuritilganligi ham yaqqol misol bo'la oladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev o'zining Konstitutsiya va qonun ustuvorligiga bag'ishlangan nutqlarida fuqarolar tomonidan ko'tarilayotgan va xalq qabulxonlari orqali kelib tushayotgan ko'plab muammo va kamchiliklarni keltirib o'tgan. Masalan, yaqin bir oy ichida turli hududlardagi jazoni ijro etish kalonyalarida mahkumlarning murdasi chiqqanligi ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqaldi hamda vafot etgan shaxslarning yaqinlari bularga jazoni ijro etish hududidagi xodimlarning zulumlari va tajovuzlari sabab bo'lganligini ko'rsatishmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 26-moddasida shunday norma o'rnatilgan: "Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora ko'rib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmaydi. Sudda ayblanayotgan shaxsga o'zini himoya qilish uchun barcha sharoitlar ta'minlab beriladi. Hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas"<sup>3</sup>. Bu o'z navbatida Konstitutsiyaning mazkur moddasi hamda Konstitutsiya va qonun ustuvorligining buzilishi hisoblanadi.

<sup>2</sup> Lex.uz-O'zbekiston Respublikasi yagona interaktiv hujjatlar portali

<sup>3</sup> Lex.uz-O'zbekiston Respublikasi yagona interaktiv hujjatlar portali

Qo‘shimcha qilib aytadigan bo‘lsak, bir necha yillar davomida amaliy jihatdan Toshkent shahrida doimiy ro‘yxatda turish uchun bir nechta noaniq taqiqlar qo‘yilgan edi. Vaholanki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 28-moddasida O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining bir joydan ikkinchi joyga erkin ko‘chishi belgilangan. Lekin bir necha yillar davomida mana shu norma hamda Konstitutsiyaning ustunligi prinsipi buzilib keldi.

Bir necha yillar davomida olib borilgan islohotlar va Prezident qarorlari asosida bu muammo tom ma’noda hal etildi.

Qonun ustuvorligi eng rivojlangan mamlakatlardan biri bu- Janubiy Korea davlati. *The WJP Rule of Law Index*ning yozishicha, oxirgi bir yil ichida bir necha rivojlangan davlatlar qonun ustuvorligi ko‘rsatkichlari bo‘yicha bir necha pog‘onalarga pastlagan. Ammo Janubiy Korea bu ko‘rsatkichlarda faqat yuqoriladi. Bunga asosiy sabab aholining huquqiy madaniyati va huquqiy ongining yuqoriligi bo‘lmoqda. Chunki barcha aholi huquqlaridan qayerda foydalanishni hamda majburiyatlarini bajarishni yaxshi biladi. Shuning uchun ularda har bir qonunlar va qarorlar ustidan jamoatchilik nazorati kuchli.

Bundan tashqari, Buyuk Britaniya ham qonun ustuvorligi ustuvor davlatlardan biri hisoblanadi. Britaniya xalqining o‘yin qoidalarini hurmat qilishga e’tibor qaratishi va ularning halol o‘yinga sodiqligi, siyosiy va huquqiy hokimiyatning tegishli muvozanatini ta’minlaydi: parlament qonun ishlab chiqadi, sud esa uning hamma uchun birdek qo‘llanilishini nazorat qiladi.

Buyuk Britaniyada huquqning to‘rtta qoidasi - *javobgarlik, ochiq hukumat, adolatli qonun va ochiq va xolis adolat* qat’iy o‘rnatilgan bo‘lib, davlat amaldorlarining qonundan ustun bo‘lmashligini, qabul qilinayotgan qarorlarning shaffofligini, qonunlarning adolatli ishlab chiqilishini va qonunning xolis ijro etilishini ta’minlaydi.

Mana shu to‘rt qoida sababli bir necha asrlardan beri Buyuk Britaniyaning qonun ustuvorligi ta’minlanib kelinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida ham qonun ustuvorligini ta’minlash uchun ham fuqarolar, ham mansabdor shaxslar harakat qilishi kerak ya’ni, fuqarolar o‘zining huquqiy madaniyatini oshirgan holda jamoatchilik nazoratini kuchaytirishi lozim. Mansabdor shaxslar esa o‘zlari chiqarayotgan qonunlari, qarorlari hamda qilayotgan harakatlarida qonun ustuvorligini yaqqol ko‘rsatib turishlari kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta’minlash, bu borada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi”<sup>4</sup> qarori ham ayni shu sohadagi aniq muammolarga yechimlarni ko‘zlagan.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

<sup>4</sup> Lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi yagona interaktiv hujjatlar portali

1. Islomov Z.M. Davlat va huquq nazariyasi.-T.:Adolat,2007. B.594
2. Muqimov.Z. Chet mamlakatlar davlati va huquqi tarixi.-T.:Akademnashr,2012-27-bet
3. Saydullayev.Sh.A. Davlat va huquq nazariyasi.-T.:TDYU,2021.B.104
4. Odilqoriyev. X.T. Davlat va huquq nazariyasi.-T.:Adolat,2018. B.249.
5. Ильин И.А. Теория права и государства / Под редакцией и предисловием В.А.Томсинова. М., «Зерцало», 2003, 67-бет.
6. Алексеев С.С. Право на пороге нового тысячелетия. М., «Статут», 2000, 167-168-бетлар.
7. [www.lex.uz.com](http://www.lex.uz.com)
8. [www.norma.uz](http://www.norma.uz)